



“Milliy farmatsevtikada ta’lim, fan va ishlab chiqarishning muammolari va istiqbollari”

mavzusidagi Respublika
ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI TO`PLAMI



14-NOYABR, 2025-YIL
TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

MILLIY FARMATSEVTIKADA TA‘LIM, FAN VA
ISHLAB CHIQARISHNING MUAMMOLARI VA
ISTIQBOLLARI

mavzusidagi Respublika ilmiy - amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

TOSHKENT - 2025

O'RMONQORA (GLAUCIUM L.) O'SIMLIGINI TAVSIFI VA MORFOLOGIK IDENTIFIKATSIYASI

Ganiyev A.K., [Xayitboyeva Sh.X.](#)

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston

e-mail: akganiyev62@gmail.com, shakhribonuxayitboyeva@gmail.com

Dolzarbli: Hozirgi davrda tabiiy manbalardan ya'ni dorivor xususiyatga ega o'simlik mahsulotlaridan olingan dori vositalariga talab oshib bormoqda. Shu sababli O'zbekiston florasida mavjud, ammo yetarli darajada o'rganilmagan o'simlik turlarini kimyoviy va farmakognostik jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Glaucium L. turkumi tarkibida alkaloidlar va boshqa biofaol birikmalar mavjudligi uning farmakologik ahamiyatini aniqlash va yangi fitopreparatlar yaratishda istiqbolli manba ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi: Toshkent viloyatining Parkent tumanidan 2025 yil may oyida tayyorlangan Glaucium L. turkumiga mansub o'simligini morfologik belgilarini o'rganish va farmakognostik tadqiqotlar olib borish uchun, turini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Usul va uslublar: Glaucium L. turkumi vakillarining tarqalishi, kimyoviy tarkibi, dorivorlik qiymati va qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlardan olib o'rganildi. O'simlikning morfologik tuzilishi va qaysi turga mansubligini aniqlash gerbariy materiallarini o'rganish orqali amalga oshirildi.

Natijalar: Sariq glaucium (*Glaucium flavum* Crantz) - ko'knoridoshlar (Papaveraceae) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, izoxinolin alkaloidlariga boy. Jumladan: asosiy faol alkaloidi glaucindan tashqari sanguinarin, chelerithrin, protopin, berberin alkaloidlari; flavonoidlar, organik kislotalar va taninlar saqlaydi. U yo'tal markazini bostiradi, lekin kodeindan farqli o'laroq nafas olishni susaytirmaydi. U "Glaucin", "Bronholitin" va "Glauvent" preparatlarida quruq samarasiz yo'tal, bronxit, ko'k yo'talkasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, o'simlik ekstraktlari bronxlar va qon tomirlarining silliq mushaklarini bo'shashtiradi. Shuning uchun ular bronxospazmlar, gipertenziya va spastik og'riqlar uchun ishlatiladi. Bir qancha Yevropa va MDH mamlakatlarida sariq glaucium (*Herba Glaucii flavii*) alkaloid glaucin manbai sifatida farmakopeyalarga kiritilgan. Glaucin gidrobromid sanoatmiqyosida ishlab chiqariladi. O'zbekiston florasida kadastrida Glaucium L. turkumining 2 ta: bejirim o'rmonqora (*Glaucium elegans* Fisch. & C.A.Mey. va popukli o'rmonqora (*Glaucium fimbriigerum* (Trautv.) Boiss.) turlari Toshkent viloyatining tog'li hududlarida uchraydi. Popukli o'rmonqora ko'p yillik (kamdan-kam ikki yillik) o'tsimon o'simlik. Ildizlar kuchli rivojlangan, chuqur ildiz otgan. Poyasi tik o'suvchi, yuqorida shoxlangan, balandligi 40-80 sm gacha. Sirti zich, uzun, yumshoq tuklar bilan qoplangan. Poyasi mumsimon qoplamali kulrang-yashil rangga ega. Barglari ketma-ket, ajralgan, kulrang-yashil, tukli. Pastki barglari yirik, bandli, patsimon bo'lingan va ildiz bo'g'inida to'plangan. Yuqori barglari bandsiz, mayda va mayda tukli. Barg yuzasi yumshoq tukli, chetlari va tomirlari bo'ylab popukli tuklar bilan qoplangan. Gullari yakka, yirik, diametri 4-6 sm, uzun gulbandlarda joylashgan. Gulbarglari yorqin sariq, yumaloq, ba'zan tagida to'q sariq yoki qizg'ish rangga ega. Gulkosachabarglari 2 ta, gul ochilganda tushadi. Gulchaglari ko'p sonli, changchisi - sariq. Urug'chisi bitta, onalik tuguni cho'ziq, yuqorida joylashgan. Mevasi biroz egilgan, uzunligi 10-20 sm bo'lgan qo'zoq. Meva yuzasi zich uzun tuklar bilan qoplangan, ko'pincha popukli. Mevasi pishganida, qo'zoq choklari bo'ylab ochiladi va ko'plab urug'larini sochadi. Urug'lari mayda, yumaloq yoki oval, jigarrang, burishgan, uzunligi taxminan 1-1,2 mm.

Xulosalar: O'simlikning morfologik tuzilishi gerbariy materiallarini o'rganish asosida, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika institutining "O'zbekiston florasida laboratoriyasi" mudiri, DSc Turginov O.T. tomonidan popukli o'rmonqora (*Glaucium fimbriigerum* (Trautv.) Boiss.) sifatida aniqlandi. Olingan ma'lumotlar o'simlikni chuqur farmakognostik o'rganishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

77. АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СОЗДАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНОЙ ДОБАВКИ НА ОСНОВЕ МЕСТНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ РОМАШКИ АПТЕЧНОЙ И МЯТЫ ПЕРЕЧНОЙ
Абдуллаева М.У., Олимов Н.К., Абдурахимова Г.А. 80
78. PIRAZOLOPIRIMIDINLARNING BIRLAMCHI VA IKKILAMCHI AMINLAR BILAN NUKLEOFIL ALMASHINISH REAKSIYALARI
Axmedova N.B., Ortikov I.S., Elmuradov B.J. 81
79. ACORUS CALAMUS L. ILDIZPOYASINING EFIR MOYI TARKIBINI GX-MS USULIDA ANIQLASH
Mahmudova.L.A, Xusainova.R.A., Abduravidov T. 81
80. QIRQBO'G'IM O'SIMLIGIDAN QURUQ EKSTRAKT OLISH
Anarmetova U.B., Saidvaliyev A.K. 82
81. FLAVONOIDS OF THE AERIAL PARTS OF *DATISCA CANNABINA* L.
Akhmedova D.Sh., Ganiyev A.A., Nishanbaev S.Z. 84
82. O'RMONQORA (*GLAUCIUM* L.) O'SIMLIGINI TAVSIFI VA MORFOLOGIK IDENTIFIKATSIYASI
Ganiyev A.K., Xayitboyeva Sh.X. 85
83. ФИТОХИМИЧЕСКОЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПЕРСПЕКТИВНОГО ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ КЛЕВЕРА ПОЛЗУЧЕГО
Абдуганиева М.Ф., Аяпова А.А., Халилова Ш.Р., Мухитдинова М.К. 86
84. *SENECIO SUBDENTATUS* O'SIMLIGI YER USTKI QISMI LIPIDLARI
Maxmudova Sh.R., Yuldasheva N.K., Nishanbayev S.Z., Gusakova S.D. 87
85. CROCUS SATIVUS O'SIMLIGI GUL QISMINING FITOKIMYOVIY TARKIBI
Maxmudova Sh.R., Xurramov A.R., Bobakulov X.M., Oxundedayev B.S., Nishanbayev S.Z., Narbutaeva D.A. 88
86. ALLAPININ TARKIBIDAGI LAPOKANITIN, RANOKANITIN, DEZATSETIL LAPOKANITIN, LEYKONIN, ATSETILSEPOKANITINLARNING SIFATINI NAZORAT QILISH USULLARI
Mirzabdullayeva N.Sh., Ubaydullayev Q.A. 88
87. TOK BARGIDAN QURUQ EKSTRAKT OLISH, TARKIBIDAGI TEMIR MIQDORINI ANIQLASH
Mirzayeva M.M., Saidvaliyev A.Q. 90
88. EVALUATION AND CONTROL OF EXTRAVAGANT ADDITIVES CONTAINED IN SULPIRIDE
Nematova M.S., Askarova M.A., Tashpulatova A.D. 91
89. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ОСНОВНОГО ДЕЙСТВУЮЩЕГО ВЕЩЕСТВА В ЖЕЛЧЕГОННЫХ ГРАНУЛАХ «САФРОФИТ»
Олимов Х.К., Хамидуллаев А.Р. 92
90. ОПРЕДЕЛЕНИЕ ДОБРОКАЧЕСТВЕННОСТИ ГРАНУЛ «САФРОБОЗ»
Олимов Х.К., Миррахимова Т.А. 93
91. O'ZBEKISTON FLORASIDA O'SUVCHI *TRIPLEUROSPERMUM DISCIFORME* O'SIMLIGINING EFIR MOYI TAHLILI
Oxundedayev B.S., Bobakulov X.M., Raximberdiyeva Sh.R., Nishanbayev S.Z. 94
92. *ARTEMISIA GLANDULIGERA* O'SIMLIGINING EFIR MOYI TAHLILI VA MIKROBLARGA QARSHI FAOLLIGI
Raximberdiyeva Sh.R., Oxundedayev B.S., Bobaqulov X.M., Xusainova R.A., Nishanbayev S.Z., Sasmakov S.A. 95